




**«ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНинг ҲАРАКАТЛАР
СТРАТЕГИЯСИ: МАКРОИҚТИСОДИЙ
БАРҚАРОРЛИК, ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИК ВА
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ»**

**ХАЛҚАРО ОНЛАЙН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТҮПЛАМИ**

3-ШЎЬБА

**2020 йил 10–11 декабрь
Тошкент, Ўзбекистон**





«ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ: МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИК, ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИК ВА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ»

**ХАЛҚАРО ОНЛАЙН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ ТҮПЛАМИ**

3-СЕКЦИЯ

**2020 йил 10–11 декабрь
Тошкент, Ўзбекистон**

УЎК: 323(575.1)

КБК: 66.3(5Ў)

Ў 80

КОНФЕРЕНЦИЯ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNDASABTLARI
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ
QO'MITASI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TRANSPORT
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENT
HUZURIDAGI
DAVLAT
BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



UNIVERSITI
TEKNOLOGI
MARA



WESTMINSTER
INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT
An Accredited Institution of the University of Westminster (UK)



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
FANLAR
AKADEMIYASI



"TARAQQIYOT
STRATEGIYASI"
MARKAZI



TDIU



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Шарипов Конгратбой Аvezimbetovich – Тошкент давлат иқтисодиёт университети ректори, т.ф.д., профессор;

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазири ўринбосари, п.ф.д., профессор;

Абдурахмонов Қаландар Ҳоджаевич – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси академиги, Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети Тошкент филиали ректори;

Каримов Комилжон Ҳамидович – Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети ректори; и.ф.н., доцент;

Эшов Мансур Пўлатович – Тошкент давлат иқтисодиёт университети Ўқув ишлари бўйича проректор, и.ф.д., профессор;

Абдурахманова Гулнора Қаландаровна – Тошкент давлат иқтисодиёт университети Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, и.ф.д., профессор;

Худойқулов Садриддин Каримович – Тошкент давлат иқтисодиёт университети Ёшлилар билан ишлаш бўйича проректор, и.ф.д., профессор;

Рахмонов Дилшод Алиджанович – Тошкент давлат иқтисодиёт университети Халқаро ҳамкорлик бўйича проректор, и.ф.д., профессор;

Идиев Нодир Фозилович – Тошкент давлат иқтисодиёт университети Молия-иктисод ишлари бўйича проректор, и.ф.н., доцент;

Курбонов Хайрилла Абдурасулович – Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги «Университет 3.0» маркази директори, и.ф.н., доцент

ТАҚРИЗЧИЛАР

Иминов Одилжон Каримович – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Фан, таълим ва соғликни сақлаш бўйича кўмита раиси;

Герман Франц Стерцингер – Мюнхен техника университети, PhD, профессор (Prof. Baumgarten).




Ўзбекистон Республикасининг Ҳаракатлар стратегияси: макроиктисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истиқболлари: III халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами. З-шўъба. ТДИУ, 2020 йил 10–11 декабрь. – Т.: «Маънавият», 2021. – 554-б.

© Матн. Муаллифлар, 2021.

© ТДИУ, 2021.

© «Маънавият», оригинал макет, 2021.



**«СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН:
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ
СТАБИЛЬНОСТЬ, ИНВЕСТИЦИОННАЯ
АКТИВНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ»**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
III МЕЖДУНАРОДНОЙ ОНЛАЙН
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

3 СЕКЦИЯ

**10-11 декабря 2020 года
Ташкент, Узбекистан**

УДК: 323(575.1)

КБК: 66.3(5У)

У 80

ОРГАНИЗАТОРЫ КОНФЕРЕНЦИИ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNDASBATLARI
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ
QO'MITASI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TRANSPORT
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENT
HUZURIDAGI
DAVLAT
BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



UNIVERSITI
TEKNOLOGI
MARA

WESTMINSTER
INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT
An Accredited Institution of the University of Westminster (UK)



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
FANLAR
AKADEMIYASI



"TARAQQIYOT
STRATEGIYASI"
MARKAZI



TDIU



РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Шарипов Конгратбой Аvezimbetovich – ректор Ташкентского государственного экономического университета, д.т.н., профессор;

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – заместитель министра высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, д.п.н., профессор;

Абдурахмонов Қаландар Ходжаевич – академик Академии наук Республики Узбекистан, ректор Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова;

Каримов Комилжон Хамидович – ректор Университета мировой экономики и дипломатии, к.э.н., доцент;

Эшов Мансур Пўлатович – проректор по учебной работе Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н., профессор;

Абдурахмонова Гулнора Қаландаровна – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н., профессор;

Худойқулов Садриддин Каримович – проректор по работе с молодёжью Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н., профессор;

Рахмонов Дилшод Алиджанович – проректор по Международному сотрудничеству Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н., профессор;

Идиев Нодир Фозилович – проректор по финансово-экономической работе Ташкентского государственного экономического университета, к.э.н., доцент;

Курбонов Хайрилла Абдурасолович – директор центра «Университет 3.0» при Ташкентском государственном экономическом университете, к.э.н., доцент.

РЕЦЕНЗЕНТЫ

Иминов Одилжон Каримович – председатель Комитета по науке, образованию и здравоохранению Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, сенатор;

Стерцингер Герман Франц – Технический университет Мюнхена, PhD, профессор (Германия).




Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития: сборник материалов III международной онлайн научно-практической конференции. З секция. ТГЭУ, 10–11 декабря 2020. – Т.: «Маънавият», 2021. – стр. 554.

© Текст. Авторы, 2021.

© ТГЭУ, 2021.

© «Маънавият», оригинал-макет, 2021.



**«STRATEGY OF ACTIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN:
MACROECONOMIC STABILITY,
INVESTMENT ACTIVITY AND
PERSPECTIVES OF INNOVATIVE
DEVELOPMENT»**

**COLLECTION OF MATERIALS
III INTERNATIONAL ONLINE SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**

3-SECTION

**December 10-11, 2020
Tashkent, Uzbekistan**

UDK: 323(575.1)

KBK: 66.3(5)

O' 80

ORGANIZERS OF THE CONFERENCE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNDASBATLARI
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ
QO'MITASI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TRANSPORT
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENT
HUZURIDAGI
DAVLAT
BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



UNIVERSITI
TEKNOLOGI
MARA



WESTMINSTER
INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT
An Accredited Institution of the University of Westminster (UK)



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
FANLAR
AKADEMIYASI



"TARAQQIYOT
STRATEGIYASI"
MARKAZI



TJU



EDITORIAL TEAM

Kongratboy Sharipov – Rector of the Tashkent State University of Economics, Doctor of Technical Sciences, Professor;

Uzokboy Begimkulov – Deputy Minister of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor;

Kalandar Abdurakhmonov – Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Rector of the Tashkent branch of the PRUE. G.V. Plekhanov;

Komiljon Karimov – Rector of the University of World Economy and Diplomacy, PhD, Associate Professor;

Mansur Eshov – Vice-Rector for Academic Affairs of the Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics, Professor;

Gulnora Abdurakhmonova – Vice-Rector for Research and Innovation of the Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics, Professor;

Sadriddin Khudoyqulov – Vice-Rector for Youth Affairs of the Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics, Professor;

Dilshod Rakhmonov – Vice-Rector for International Cooperation of the Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics, Professor;

Nodir Idiev – Vice-rector for financial and economic work of the Tashkent State University of Economics, PhD, Associate professor;

Khayrilla Kurbonov - Director of the Center «University 3.0» at the Tashkent State University of Economics, PhD, Associate professor.

REVIEWERS

Odiljon Iminov – Chairman of the Committee on Science, Education and Healthcare of Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan;

Hermann Franz Sterzinger – Technical University of Munich, PhD, Professor (Germany).



Strategy of actions of the Republic of Uzbekistan: macroeconomic stability, investment activity and perspectives of innovative development: collection of materials of the III international on-line scientific and practical conference. 3-section. TSUE, December 10–11, 2020. – T.: «Manaviyat», 2021. – 554 p.

© Text. Authors, 2021.

© TSUE, 2021.

© «Manaviyat», original layout, 2021.



МУНДАРИЖА

Abirova G.R., Mamaeva M.E.

IMPORTANCE OF HUMAN CAPITAL IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF YOUNG SPECIALISTS IN THE CONDITIONS OF ECONOMY DIGITALIZATION 14

Alimov B.B.

THEORETICAL ISSUES OF BUSINESS PERFORMANCE ANALYSIS OF ENTITY 20

Aynaqulov M.A

INSON KAPITALINI O'LCHASH VA BAHOLASH USULLARI 26

Boboyeva G.G.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANТИRISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI 32

Gazieva S.

O'ZBEKISTONDA ISHCHI KUCHI MIGRATSİYASINI RAQAMLASHTIRISH. XORIJİY SHARQ MAMLAKATLARI TAJRIBASI 39

Goyipnazarov S.B., Fayzieva M.K.

HUMAN CAPITAL AND METHODOLOGICAL ASPECT OF CALCULATING IT: A GLOBAL APPROACH 48

Kasimov O.M.

COMPARISON ANALYSES OF MARKETING STRATEGIES IN THE BOTTLED WATER INDUSTRY IN UZBEKISTAN 59

Kasimova F.T., Ganieva N.Sh.

PERSPECTIVE WAYS OF IMPROVEMENT OF MARKETING ACTIVITY IN SMALL BUSINESS 67

Khallyyeva N.R.

USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND MARKETING IN TOURISM 72

Kucharov A.S., Ishmanova D.N.

XALQARO BIZNESDA GLOBALLASHUVNING ROLI 78

Mamarakhimov B.

THE OBJECTIVE NECESSITY OF REPRODUCTION AND EMPLOYMENT OF THE LABOR 83

Mamatov M.A., Muhsinov B.Z.


THE NORM OF INVESTMENT IN ECONOMIC GROWTH AND INTERRELATION OF HOUSEHOLD CONSUMPTION 88

Maxmudov N.M, Avazov N.R.

O'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI 93

Shukurullaeva S.B.

REDUCING STATE INTERVENTION IN THE ECONOMY, INCREASING THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE ECONOMY 100



Boboyeva G.G.

*Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi,
guli.boboyeva@bk.ru*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE DEVELOPMENT OF THE
INTELLECTUAL POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND
THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

Abstract. Maqolada mamlatimiz intellectual salohiyati ko'rsatkichlari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

Аннотация. В статье описаны показатели интеллектуального потенциала нашей страны и проводимые реформы в этой сфере.

Abstract. The article describes the indicators of the intellectual potential of our country and the ongoing reforms in this area

Hozirgi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslar mayjudligiga, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turuvchi texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirishga qodir bo'lgan sifatli inson kapitaliga bog'liq bo'lmoqda. Bunday sifatli inson kapitalisiz mamlakatda ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishlarni tashkil etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning «2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni mamlakatimizning bundan buyon innovatsion rivojlanish yo'li va innovatsion iqtisodiyotga o'tishini ko'zda tutadi va bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Mamlakatning xalqaro maydonidagi raqobatbardoshlilik darajasini oshirib, innovatsion jihatdan taraqqiy etishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlanirish mazkur strategiyaning bosh maqsadi sifatida ko'rsatildi. Biz buyuk allomalarimizdan ilmning foydasi, shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Lekin ilmga amal qilish qanday bo'lishini dunyoda hech kim sohibqiron Amir Temurdek aniq va o'z tajribasida sinab ko'rib ayta olmagan bo'lsa kerak. Buyuk sohibqiron shunday deydi: «Tajribamda ko'rilmankim, azmi qat'iy, tadbirdor, xushyor, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir».


Mamlakatning inson kapitali har bir fuqaroning intellektual azmi qat'iyligida, intellektual tadbirdorligida, intellektual hushyorligi, intellektual mardligi, shijoatida ham namoyon bo'ladi.

Bu har bir kishining nimalarni bilishida, bilimidan foydalanib, qaysi ishlarni qanday sifat bilan bajara olishida, Vatanga sadoqatida ko‘rinadi.

Haqiqatan ham, inson kapitalini rivojlantirmay turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun iste’dodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi soni o’sish tendensiyasiga ega. 2020-yil fevral oyiga kelib aholi soni 34002,41 ming kishiga yetdi.

Taniqli iqtisodchi olimlarning fikricha, inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshligini keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Inson kapitalining muhim sohalari bo‘lmish ta’lim va sog‘liqni saqlashning shakllanishida davlatning o‘rni beqiyosdir.



1-rasm. Ta'limga qilingan xarajatlar[1].

2019-yilda davlat byudjetining xarajatlari 107,1 trln so‘mni tashkil etdi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1.4 baravar ko‘p bo‘lib, bunda Davlat byudjetining xarajatlari asosan ijtimoiy sohalarga yo‘naltiradi. Jumladan ijtimoiy soha xarajatlari 57.8 trln so‘mni yoki umumiy xarajatlarga nisbatan 54% ni tashkil etadi. Bunda ushbu xarajatlarning o‘sishi avvalgi yilga nisbatan 34.4 % ko‘paydi. Fanga ajratilgan xarajatlar 0.8 trln so‘mni tashkil etib, jami byudjet xarajatlarining 0.75 foiziga teng. Shu mablag‘lardan 34 foizdan ortig‘i aynan ta’lim sohasiga yo‘naltirilganligi davlat ta’lim siyosatining o‘ziga xosligidan darak beradi.

Ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YaIM tarkibida 10–12 % ni tashkil etadi [2].

2018-yil oxirida mamlakatimizda 3 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan aholi 13008.3 mingni, ya’ni jami aholining 39 % ni tashkil etgan. Ayni shu 3 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan davrda inson shaxs sifatida shakllanadi va kiritilgan investitsiyalar natijasida o‘zida inson kapitalini to‘playdi. Inson intellektual salohiyatini shakllantiruvchi makonlar bular maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, o‘rtalmas sus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim muassasalari bo‘lib hisoblanadi. Quyidagi jadvalda Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ta’lim-tarbiya muassasalarining yillar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, maktabgacha ta’lim muassasalari soni 2 yil ichida 1243 taga yoki 24.2 % ga oshgan. 2020-yil 26-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bog‘cha yoshidagi bolalarni

Respublikadagi ta'lismuassasalarining soni [3].

Ta'lismuassasasi turlari	2016–2017	2017–2018	2018–2019	Farqi	O'sish sur'ati
Maktabgacha ta'lismuassasalar	5138	5186	6381	1243	124,2
Umumta'lismaktablari	9719	9718	9774	55	100,6
O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalar	1566	1556	1537	-29	98,2
Oliy ta'lismuassasalar	70	72	98	28	140
Maktabdan tashqari ta'lismuassasalar	211	209	214	3	101,4

maktabgacha ta'lism bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazilishi ta'kidlandi. Ushbu maqsadlarga shu yilning o'zida byudjetdan qariyb 1,8 trillion so'm mablag' ajratiladi. 2020-yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga byudjetdan 130 milliard so'm ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta'lismuassasalar ham bevosita ishtirok etadi.

Umumta'lismaktablari soni ham yildan yilga oshib bormoqda. 2020-yilda byudjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so'm mablag' hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta'mirlanadi. Shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkaziladi [4].

O'rta-maxsus kasb hunar ta'limi tizimida amalga oshirilgan islohotlar tufayli 2018–2019-o'quv yilida ularning soni 2016–2017-o'quv yiliga nisbatan 29 taga kamaygan. O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarini uch toifaga bo'lish taklif etildi va joriy o'quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta'lism tizimi yo'lga qo'yilib, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etildi.

Inson kapitalining shakllanishida oliy ta'lismuassasalarining o'rni beqiyos.

Tarixiy faktlar ham jahon hamjamiyatida ta'limga muhimligini ko'rsatmoqda. F.Ruzveltning Buyuk Depressiya davrida universitetlarni misli ko'rilmagan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarori Amerikaga inqirozni yengib o'tishga va zamonaviy ishlab chiqarish va yuqori texnologiyalarni tashkil qilishda global yetakchilikka erishishga yordam berdi. «Amerika boy, chunki uning universitetlari ko'p» degan ajoyib ibora ham bejizga aytilgan emas.

Bugungi kunda respublikamizda 114 ta oliy ta'lismuassasasi mavjud. So'nngi uch yilda 6 ta oliy ta'lismuassasasi, 17 ta oliy ta'lismuassasasi filiallari 14 ta xorijiy oliy ta'lismuassasalarini tashkil etildi.

2019–2020-o'quv yilida Respublika oliy ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 410000 ta bakalavriat, 13000 ta magistratura talabalarini tashkil etadi. So'nngi uch yilda talabalar soni 1.7 baravarga oshdi. Mamlakatimiz aholisining yildan yilga oliy ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji talabi oshib bormoqda.

Shu o'rinda S.Buzrukxanovning «Jamiyat rivojlanib, aholining turmush darjasini oshib borgani sari oliy ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoj ham o'sib boradi. ... Chunki, aholining ma'lumotlilik darjasini qancha yuqori bo'lsa, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun shuncha keng imkoniyatlar ochiladi» [6] degan fikrlari o'rindidir.

Inson kapitali taraqqiyot omiliga aylangan ayni damda mamlakatimizda ham maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish bo'yicha keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jadval ma'lumotlaridan oliy ta'lismuassasalarini sonining, qabul qilingan va bitiruvchi talabalar sonining oshib borish xarakterda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Respublikadagi OTMilar va unda tahlil olayotgan talabalar soni [5].

Ta'lim muassasasi turlari	O'quv yili			O'zgarishi	O'sish sur'ati, %
	2016–2017	2017–2018	2018–2019		
Oliy ta'lif muassasalari soni	70	72	98	28	140
shundan xorijiy oliy ta'lif muassasalari filiallari	7	7	9	2	128.6
Oliy ta'lif muassasalari talabalar, ming kishi	268.3	297.7	360.2	91.9	134.2
<i>Shu jumladan bo'limlarda o'qiydiganlar:</i>					
Kunduzgi, ming kishi	267,9	287,5	313	45.1	116.8
Kechki, ming kishi			1.2	1.2	-
Sirtqi, ming kishi	0,4	10,2	46	45.6	11500
Qabul qilingan talabalar, ming kishi	61.2	85.7	114.5	53.3	187.1
Bitirgan mutaxassislar, ming kishi	64.1	67.4	70.3	6.2	109.7

Hozirgi paytga qadar O'zbekistonda oliy ta'lif muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lif maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga nisbatan 7,0-9,0 % ni tashkil etib kelgan. Holbuki, bu masalan Serbiyada 97,4 %, Yangi Zelandiyada 95,6 %, Rossiya Federatsiyasida 84,2 %, AQSHda 50,9 % va Qozog'istonda 69,2 % ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida «Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmli bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50–60 foizga yetkazamiz» [7] degan fikrlarni bildirdilar.

Ta'lif qay darajada rivojlangan bo'lsa, milliy iqtisodiyotga shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatadi va shunga mos iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lif sohasi iqtisodiy o'sishga erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2018-yilda mamlakatimiz aholisining 25yosh va undan katta yoshdagi aholining ta'lif darajasining 16.4 % i oliy ma'lumot, 50,1 % o'rta maxsus kasb-hunar, 33.4 % i o'rta ma'lumot tashkil etadi.


O'zbekistonda aholi intellektual salohiyatining milliy iqtisodiyot doirasidagi ahamiyati xususida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- ▶ Ta'lif tizimi uy xo'jaligiga ta'sir etib, undagi mehnat resurslarining kasbiy salohiyatini shakllantiradi;
- ▶ shakllangan mehnat resurslari bozor orqali milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo'naltiriladi, ular band bo'lganlarning kasbiy tarkibini shakllantiradi, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi. Inson kapitali innovatsion iqtisodiyot va rivojlanishning keyingi bosqichi bilimlar iqtisodiyotini shakllantiruvchi va rivojlaniruvchi bosh omil hisoblanadi.

Bu o'rinda hozirgi iqtisodiyotning innovatsiyali rivojlanish bosqichida mehnatga layoqatli aholining barqaror va munosib ish joylari bilan ta'minlanishida inson kapitalining muhim ekanligini ta'kidlash kerak.

Quyidagi rasmda respublikamizda mavjud korxona va tashkilotlarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimlanishi ifodalangan:

Rasmdagi ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yil sayin korxonada faoliyat yurituvchi yollanma xodimlarning oliy ma'lumot darajasi oshib bormoqda. Zero M. Karpenkoning



2-rasm. Korxona va tashkilotlarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimlanishi, %larda [8].

«... oly ma'lumotli kishining ish unumdarligi oly ma'lumotsiz kishinikiga qaraganda 15 marta yuqori» [9] fikriga tayangan holda, mamlakatimiz korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati oshmoqda, degan xulosaga kelamiz.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar inson kapitaliga investitsiyalardan olinadigan foyda texnikaga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan uch baravar ortiqligini ko'rsatgan. Shu bilan birga xodimlar ta'lif darajasining 10,0 %ga ortishi mehnat unumdarligini 8,6 %ga ko'paytirishi aniqlangan. Shuningdek, aksiyadorlik kapitalining shu miqdorga ko'payishi mehnat unumdarligini 3,0–4,0 % ga oshirgan.

Mamlakat intellektual salohiyatini oshirishda fidoiy va muqaddas kasb egalari bo'lmish o'qituvchi pedagoglarning o'rni beqiyosdir.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu «Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu «mo'jizani qanday amalga oshirdingiz?» savoliga «Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagи «mo'jiza»larni qilgan insonlar – muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtar avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz» deya javob bergan ekan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda iqtisodiyotimizning uzoq muddatli o'sishini istaydigan bo'lsak, birinchi navbatda inson kapitali, birinchi navbatda jamiyatimizda o'qituvchilarning hurmatini oshirishga e'tibor qaratishimiz kerak.

Oly ta'lif muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash ko'lmini kengaytirish eng muhim masalalardandir. Chunki yoshlarimizga munosib ta'lif berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishda ularning hissali beqiyosdir.

3 - jadval

OTMilar ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari [10].

Ko'rsatkichlar	O'quv yili			O'zgarishi	O'sish sur'ati, %
	2016 -2017	2017-2018	2018-2019		
Oly ta'lif muassasalarini o'qituvchilari	23961	25107	26664	2703	111.3
Ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar, nafar	7429	7481	8095	666	109.0
Jami o'qituvchilar sonidagi hissasi, % da	31	29.8	30.4	-0.6	98.1
Ulardan ilmiy unvonga ega bo'lganlar, nafar	5256	5169	5339	83	101,6
Jami o'qituvchilar sonidagi hissasi, % da	22	20.6	20,0	-0.6	98.1

So‘nggi uch yil ichida O‘zbekistonda o‘qituvchilarning dahlsizligi to‘liq ta’minlandi, ya’ni ular har qanaqangi byurokratik ishlardan, qog‘ozbozliklardan holi bo‘lishlari, o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar – mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari, obodonlashtirish kabi ishlardan ozod etildi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya muassasalarida, shu jumladan oliy ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning huquqiy asoslari sifatida bir qator me’yoriy –huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ular:

1. O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 14-avgustda» Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risidagi» qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida» 2019-yil 29-oktabr № O‘RQ-576;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018-yil 5-iyun;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni 2017-yil 29-novabr;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori «Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘srimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida» 2019-yil 24-dekabr, 1030-son;

6. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2019-yil 8-oktabr;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi Farmoni mamlakatimizdagi oliy ta’lim tizimini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ladi.

Konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloq qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha chora tadbirlar belgilab olindi.

Quyida ushbu qabul qilingan konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, ayni paytda kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTM lar soni 2 tadan 2030-yilgacha 85 tagacha yetkazilishi rejalashtirilgan. 2020–2021-yillarda 25 ta OTM kredit modul tizimiga o‘tkaziladi. Kredit modul tizimi o‘qituvchidan ham, talabandan ham mas’uliyatli bo‘lishni talab qiladi. Talabalarda oliygohga kirgan talaba albatta uni tamomlaydi, degan tushuncha bo‘lmasligi, aks holda ish beruvchining bitiruvchiga bo‘lgan munosabati o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Nodavlat, davlat xususiy sherikchilik asosidagi OTM lar soni hozirda 4 tani tashkil etsa, uni 35 tagacha yetkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagи qarori «Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida» Hukumat qaroriga asosan 2020-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga 10 ta oliy ta’lim muassasalari o‘tkazildi.

2019-yilda oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi jami bitiruvchilar soniga nisbatan 20 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 25 % ni, 2030-yilgacha esa 50 % dan oshishi rejalashtirilgan.[11]

Oliy o‘quv yurtlarida to‘lov kontrakt asosida o‘qish uchun belgilanadigan qabul kvotasining bosqichma-bosqich bekor qilinishi, OTM o‘z salohiyati va talabalarga bo‘lgan ehtiyojiga qarab pullik asosdagi qabul kvotalarini mustaqil ravishda belgilay boshlashi va talabgor yoshlarga bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida qatnashish imkoniyatining yaratilishi universitet institutlar o‘rtasida erkin – sog‘lom raqobat vujudga kelishini ta’minlaydi. Oliy ta’lim muassasalari talabani o‘zida saqlab qolish uchun kurashadi, turli imtiyozlar yaratadi. Bu kabi sog‘lom raqobatning kuchayishi esa o‘z-o‘zidan oliy ta’lim muassasasining intellektual kapitalini oshirish, rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistonda ta’lim 2015–2018-yil. Statistik to‘plam.O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi 2019-yil.
2. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy risola. – T.: «Manaviyat», 2017. 324-b.
3. O‘zbekistonda ta’lim 2015–2018-yil. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, 2019-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020-yil 26-yanvar.
5. O‘zbekistonda ta’lim 2015–2018-yil. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, 2019-yil.
6. Buzrukhanov S. Oliy ta’lim investitsiya muhitining rivojida tadbirkorlik marketingi // Jamiyat va boshqaruv. 2010. – 2. 75–76-betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020-yil 26-yanvar.
8. O‘zbekistonda ta’lim 2015–2018-yil. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, 2019-yil.
9. Карпенко М. Новая роль высшего образования в эпоху развития инновационной экономики, глобализации и депопуляции // Знание. Понимание. Умение, 2007. № 4. С. 31–39.
10. O‘zbekistonda ta’lim 2015–2018-yil. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi maqsadli ko‘rsatkichlari.

